



YO'L HARAKATI QOIDABUZARLIKLARINI JARIMA BALLARI ASOSIDA BAHOLASH TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI

Yangibayev Aybek Kidirbayevich

Ichki ishlar organlarining ma'muriy faoliyati kafedrası boshlig'i, podpolkovnik,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20552330>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimining huquqiy asoslari, mexanizmlari va ahamiyati tahlil qilingan. Tizimning avtomatlashtirilgan shaklda ishlashi, rag'batlantirish choralari va jazo muqarrarligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati xavfsizligi, ma'muriy javobgarlik, jarima ballari, "E-jarimaball", jazo muqarrarligi, avtomatlashtirilgan tizim.

EVALUATION SYSTEM OF TRAFFIC VIOLATIONS BASED ON PENALTY POINTS: LEGAL GROUNDS AND INEVITABILITY OF PUNISHMENT

Annotation: This article analyzes the legal foundations, mechanisms, and significance of the penalty point system for traffic violations. The automated functioning of the system, incentive measures, and its role in ensuring the inevitability of punishment are highlighted.

Keywords: traffic safety, administrative liability, penalty points, "E-jarimaball", inevitability of punishment, automated system.

СИСТЕМА ОЦЕНКИ НАРУШЕНИЙ ПРАВИЛ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ НА ОСНОВЕ ШТРАФНЫХ БАЛЛОВ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И НЕОТВРАТИМОСТЬ НАКАЗАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются правовые основы, механизмы и значение системы оценки нарушений правил дорожного движения на основе штрафных баллов. Освещены автоматизированное

Contact: 99 826 99 56



функционирование системы, меры поощрения и ее роль в обеспечении неотвратимости наказания.

Ключевые слова: безопасность дорожного движения, административная ответственность, штрафные баллы, «Е-jarimaball», неотвратимость наказания, автоматизированная система.

O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashga va inson hayotini muhofaza qilishga qaratilgan. Yo'l harakati ishtirokchilarining qoidalarga rioya etishlarini ta'minlash va huquqbuzarliklarning takrorlanishini oldini olish maqsadida milliy qonunchilikka yangi institut — yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimi joriy etildi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-fevraldagi "Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonun ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi 296-sonli qarori bilan yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tartibi to'g'risida nizom ishlab chiqildi.

Yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash — bu yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasidagi qo'shimcha chora hisoblanadi. Mazkur tizim transport vositalarini boshqargan haydovchilarga nisbatan faqat Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYHXX) xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnomalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar asosida qo'llaniladi.

Tizimning ishlash mexanizmi va ballar hisobi Jarima ballari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati





xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining "E-jarimaball" moduli orqali inson omilisiz avtomatlashtirilgan tartibda hisoblab boriladi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 34.1-moddasiga asosan, kodeksning muayyan moddalari bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilganda, asosiy jazo bilan birga jarima ballari ham hisoblanadi.

Jumladan, MJtKning 125, 126, 127-moddalari, 128.3, 128.4, 128.5, 128.6, 128.8, 128.9-moddalari hamda 129, 130 va 137-moddalari bilan nazarda tutilgan qoidabuzarliklar (tezlikni oshirish, svetoforming qizil chirog'iga o'tish, xalaqit berish, quvib o'tish qoidalarini buzish va boshqalar) uchun jazo tariqasida ballar hisoblanadi. Sodir etilgan har bir huquqbuzarlik uchun hisoblanadigan jarima balining eng yuqori miqdori ikki balldan oshmasligi kerak.

Jarima ballari huquqbuzarliklardan biri birinchi marta sodir etilgan kundan e'tiboran bir yil davomida hisoblab boriladi. Bir yil o'tgach, to'plangan jarima ballari transport vositasining haydovchisidan avtomatlashtirilgan tarzda yechiladi. Agar haydovchining jarima ballari sakkiz ballga teng bo'lsa, u bu haqida "E-jarimaball" moduli orqali mobil aloqa vositasiga "SMS" xabar yuborish yo'li bilan ogohlantiriladi.

Jazo muqarrarlari kafolatlari Agar hisoblangan jarima ballari bir yil davomida o'n ikki balldan oshib ketsa, qonunchilikda jiddiy choralar nazarda tutilgan. Bunday hollarda, oxirgi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qoidabuzarga nisbatan qo'shimcha jazo tariqasida transport vositalarini boshqarish huquqidan kamida olti oy muddatga mahrum qilish jazosi qo'llaniladi. Ma'muriy bayonnomalar "E-jarimaball" moduli orqali jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlariga inson omilisiz avtomatik tarzda elektron shaklda yuboriladi va ma'muriy jazo sud tomonidan tayinlanadi.

Rag'batlantirish va chegirish choralari





"E-jarimaball" tizimi nafaqat jazolash, balki haydovchilarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash va rag'batlantirish funksiyasini ham bajaradi:

- O'n ikki oy mobaynida yo'l harakati qoidalarini buzmagani haydovchilarga rag'batlantirish tariqasida, keyingi davrda birinchi marta sodir etilgan qoidabuzarlik uchun birinchi jarima balli hisoblanmaydi. (Biroq, asosiy jarimadan ozod etilmaydi).
- Agar haydovchiga oxirgi huquqbuzarligi uchun jarima ballari hisoblangan vaqtdan boshlab olti oy davomida qoidabuzarlik sodir etmasa, uning umumiy hisobidan ikki jarima balli chegirib tashlanadi. Umumiy jarima ballari ikki balldan kam bo'lgan taqdirda, barcha ballar nolga aylanadi va muddat yangidan boshlanadi.

Istisno holatlar

Shuni alohida qayd etish lozimki, jarima ballari quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning §34¹-moddasida ko'rsatib o'tilmagan yo'l harakati qoidabuzarliklariga.
2. O'zbekiston hududida vaqtincha bo'lib turgan yoki tranzit o'tayotgan chet el transport vositalarining haydovchilariga.
3. Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar va ularning haydovchilariga (O'zbekiston fuqarolari bundan mustasno).

Agar sud tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bekor qilinib, haydovchi ma'muriy javobgarlikdan ozod etilsa, sudning qarori tizimga yuklanadi va bekor qilingan huquqbuzarlik bo'yicha qayd etilgan jarima balli avtomatik tarzda hisobdan chiqariladi.

Yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimining joriy etilishi yo'llarda harakat xavfsizligini oshirish, haydovchilarda mas'uliyat hissini kuchaytirish va takroriy jinoyatlarning oldini olishda inqilobiy qadamdir. "E-





jarimaball" modulining ishga tushirilishi jazo muqarrarligini korrupsiyadan xoli, shaffof va bevosita inson omilisiz amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-fevraldagi "Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi "Yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-sonli qarori.
4. Yangibayev A.K. Yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2025.
5. Yangibayev A.K. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023.

